



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-134-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

**О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni, “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudirining hisoboti to‘g‘risida**

Angor tumanida 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar 46551 nafar bo‘lib, shundan 22390 nafari qiz bolalarni tashkil etadi. 34 nafari yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar. Ularning 31 nafari vasiylik va homiylikka 3 nafari oilaga tarbiyaga (Patronat)ga berilgan. Bo‘lim tomonidan 19 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan 7 nafar yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ro‘yxati “Mehr daftari”ga kiritish uchun alohida shakillantirilgan. Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 oktabrdagi 656-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joylar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida “Onlayn-navbat” axborot tizimiga kiritilgan uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi barcha tegishli ma’lumotlar bazasini shakillantirib, farzandlikka, vasiylikka, homiylikka, patronatga olingan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “mu.maktab.uz” tizimiga kiritib bormoqda. Ushbu yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning yozgi ta’til vaqtini samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida tumandagi 1-sonli “Oilaviy bolalar uyi”da tarbiyalanayotgan 8 nafari Sherobod tumanidagi “Besh buloq” yozgi oromgohida dam olishi uchun, 3 nafari Toshkent shaharga sayohatga yuborilgan.

Bundan tashqari, vasiylikka, homiylikka, patronatga olingan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning yashash xonadonlari o‘rganilib aniqlangan kamchilik va muommolari bartaraf etilgan. Umumta’lim maktabini bitiruvchi 9 nafar bolalar ro‘yxati imtiyoz asosida oliy ta’limga qabul qilish bo‘yicha viloyat hokimligi va Xalq ta’limi vazirligiga taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori va 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni, ijrosini ta’minlash bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudirining hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida tinglanganligini, deputatlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori va 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha Angor tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi bosh mutaxassisi A.Juraevning Tuman kengashining tegishli doimiy komissiyasiga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari O.Umarov, bolalarni himoya qilish sho‘basi (A.Jurayev), tuman Xalq ta’limi bo‘limi (N.Mamadiyarov) va boshqa tegishli tashkilotlar rahbarlariga:

- ta’lim muassasalarida, mahallalarda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarida ularga yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni sport turlariga, fan olimpidalariga, to‘garaklarga qiziqtirish uchun zamonaviy usul va shakllardan foydalanish;

- muntazam ravishda “Davomat” tadbirlarini olib borish, darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashish;

- “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolari, ularni qiynayotgan masalalarni joyida hal qilish hamda keyingi hayotida o‘z o‘rnini topishiga har tomonlama ko‘maklashish;

- “Mehr daftari” tizimi bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilib borish;

- farzandining ta‘lim-tarbiyasi bilan yetarli darajada shug‘ullanmagan otalar bilan ta‘sirchan chora-tadbirlar asosida ish olib borish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘ba mudiri A.Jurayev “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasiga axborot berib borsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tahliliy va tanqidiy ruhda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (O.Umarov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) va ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV